XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 1 - mart VI-28-24-5-210-K/22 G'ozg'on shahar xokimligi

G‘ozg‘on shahridagi “Tumar” mahallasi tarkibidagi Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalarini “Guliston” mahallasi tarkibiga o‘tkazish hamda ayrim nomsiz geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi “O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qaroriga muvofiq shahar hududida mavjud ayrim nomsiz geografik obyektlar, ya’ni 1 ta masjid, 2 ta qabriston, 3 ta buloqni nomlashga, shuningdek, shahardagi “Tumar” mahallasi tarkibidagi Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalarini “Guliston” mahallasi tarkibiga o‘tkazishga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. G‘ozg‘on shahar hokimligi tomonidan shahar hududida mavjud ayrim nomsiz geografik obyektlar, ya’ni 1 ta masjid, 2 ta qabriston, 3 ta buloqni nomlashga, shuningdek, shahardagi “Tumar” mahallasi tarkibidagi Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalarini “Guliston” mahallasi tarkibiga o‘tkazishga oid taqdim etilgan takliflar ma’qullansin.

2. G‘ozg‘on shahar “Tumar” mahallasi tarkibidagi Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalari qonuniy tartibda “Guliston” mahallasi tarkibiga o‘tkazilsin.

shahridagi nomlanayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati **ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi, Kadastr agentligining G‘ozg‘on shahar bo‘limi (I.Xayrullayev), qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va

ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘limi (O.Oxunjonov), shahardagi mutasaddi davlat organlari va tashkilotlar mazkur qarorga muvofiq G‘ozg‘on shahar hududidagi ayrim nomsiz geografik obyektlar, ya’ni 1 ta masjid, 2 ta qabriston, 3 ta buloqni nomlashga, shuningdek, shahardagi “Tumar” mahallasi tarkibidagi Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalarini “Guliston” mahallasi tarkibiga o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Shahar ichki ishlar bo‘limi (A.Muxitdinov)ga:

mazkur qaror bilan Navbahor va Kuyaxshi ko‘chalari tarkibidagi aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

5. G‘ozg‘on shahar obodonlashtirish boshqarmasi (M.Qodirov), Kadastr agentligining G‘ozg‘on shahar bo‘limi (I.Xayrullayev), shahar qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘limi (O.Oxunjonov), shahar qurilish bo‘limi (M.Xoliqulov) bilan hamkorlikda yangidan nomlanayotgan ayrim nomsiz geografik obyektlar nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosarlari (U.Ergashev, O.Oxunjonov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A.Bazarov**

Xalq deputatlari G'ozg'on shahar
Kengashining
2022 yil 1 martdagi
VI-28-24-5-210-K/22-son qaroriga
1-ilova

G‘ozg‘on shahridagi nomlari o‘zgartirilishi belgilangan geografik obyektlar

RO‘YXATI

T/R	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasidan berilgan taklif	Izoh
1	Buloq	“Shayxon” MFY	Nomsiz	Sariobro‘y	Ko‘chaning boshi (fors-tojikcha)
2	Buloq	“Shayxon” MFY	Nomsiz	Chahak	Chuqur (choh) joyda paydo bo‘lgan buloq
3	Buloq	“Guliston” MFY	Nomsiz	Buloqi Nav	XX asrda paydo bo‘lgan buloq
4	Qabriston	“Guliston” MFY	Nomsiz	Gulobod	Qabriston gulday obod bo‘lsin degan ma’noda
5	Qabriston	“Shayxon” MFY	Nomsiz	Shayxon	Tarixda shayxlar dafn qilingan joy
6	Masjid	“Shayxon” MFY	Shohimar-don	Shohimardon	Mardlar, jasurlar, bahodirlar shohi, sardori. Bu nom xalifa Alining sifati bo‘lib, u jasurligi uchun ana shunday nomlangan